Дипоре

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"
Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti rektori
________ A.U.Sattarov
2024 yil "30" 08

**TILSHUNOSLIK**

**FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000 - Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish:(ingliz tili)

**Termiz – 2024**

CamScanner yordamida skanerlangan

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul kodi TILSH1104 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 1 | Kreditlar 4 | |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Tilshunoslik | 60 | | 60 | 120 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – tilshunoslik fani, uning kelib chiqish tarixi va taraqqiyot bosqichlarini, shuningdek, uning bo'limlari, o'rganish obyekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma'lumot berish, talabalarni tilshunoslik fanining asosiy tushunchalari, kategoriyalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, talabalarda olingan bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini shakillantirish.

**Fanning vazifasi** – til va jamiyat, til va tafakkur munosabatlari, til va nutq faoliyati, til sistemasi va strukturasi, uning sathlari, birliklari va ularning namoyon bo'lish qonuniyatlari, tilshunoslikning tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va tadqiq metodlari haqida ta'limot berish, tillarning o'zaro munosbatlari va rivojlanish qonuniyatlari, tilshunoslikning rivojlanishida ahamiyatga ega bo'lgan maktablar haqida bilim va ko'nikma hosil qilish, dunyo tillarining klassifikatsiyasi haqida nazariy bilimlar berishdan iborat.

**II. Asosiy qism (ma`ruza va seminar mashg'ulotlar)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Tilshunoslik fanining o'rganish obyekti. Tilning paydo bo'lishi.(2 soat)**

Tilshunoslik fani haqida umumiy tushuncha. Fanning obyekti, vazifa va maqsadlari haqida. Tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o'rni, tuzilishi, uning taraqqiy etish qonuniyatlarini, til haqidagi fanning asosiy tushunchalari.

Tilshunoslik fanida qo'llaniladigan terminlar, tushunchalar tizimi bilan tanishtirish. Murakkab til hodisalari va ularning qonuniyatlarini to'g'ri anglab yetish, qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar guruhlarini bir biriga solishtirib, tilning lug'at tarkibi, fonetik tizimi va grammatik qurilishini ilmiy asosda chuqur o'rganish. Tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar va farazlar haqida ma'lumotlar berish. Til va uning taraqqiyotini o'rganishda tilshunoslik fanining o'rni va ahamiyati.

**2-mavzu. Yozuv va uning rivojlanish bosqichlari. (2 soat)**

Yozuv va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Muayyan bir tilda qabul qilingan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi yozuvdir. Yozuvning paydo bo'lishi va uning insoniyat tarixidagi tutgan o'rni. Yozuvning paydo bo'lishidagi omillar. Yozuv va uning rivojlanish bosqichlari. Yevropa va O'rta Osiyo tarixidagi yozuvlar. Insoniyatning yozuvni rivojlantirishdagi qo'shgan hissasi. Yozuv va uning maxsus turlari. Insoniyat tarixida yozuvning maxsus turlarining yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan rivojlanishlar va o'zgarishlar.

**3-mavzu. Tilshunoslik fani tarixi. Qadimgi hind, xitoy, grek, rim tilshunosligi. (2 soat)**

Lingvistik ta'limotning vujudga kelishi va rivojlanish jarayonlari. Qariyb 3 ming yillik tarixni o'z ichiga olgan tilshunoslik fani tarixi. XIX-XX asrlarda mustaqil fan sifatida shakllangan til haqidagi fan. O'rta Osiyoda XI-XV asrlarda, Yevropada esa XIX asrning boshlaridan boshqa fanlar qatorida mustaqil fan sifatida tan olingan tilshunoslik fani. Taxminan eramizdan avvalgi VI ming yillikda Hindistonda, IV ming yillikda Yunonistonda, III ming yillikda shumerlar yashagan Mesopotamiyada, II ming yillikda misrliklarda, eramizning I ming yilligi boshida Turon qabilalarida vujudga kelgan tilshunoslikning ildizlari haqida.

**4-mavzu. O'rta asrlarda Yevropa va arab tilshunosligi. O'rta Osiyoda tilshunoslikning rivojlanishi. Uyg'onish davri tilshunosligi. Umumiy ratsional grammatikaning yaratilishi. (2 soat)**

O'rta asrlarda Yevropa tilshunosligi. Arab tilshunosligi. O'rta Osiyo tilshunosligi.

O'rta asrlar V asrdan (476- yildan) boshlab, XV asrgacha (1492- yilgacha) bo'lgan davrlar. Ushbu davrning tilshunoslikda ham turg'unlik davri deb e'tirof qilinishi. G'arbiy Yevropada mazkur davrdagi tarixiy sharoit, katolik cherkovining reaktsion tazyiqi ilm - fanning o'sishiga, rivojiga jiddiy to'sqinlik qilganligi. Got, arman, irland, qadimgi ingliz, slavyan va boshqalarda yozuv - yozuv sistemasining paydo bo'lishi. O'rta asr Ovruposining yagona, asosiy o'rganiladigan, tadqiq qilinadigan tili lotin tili. Donata va Pristsian grammatikasi asosida o'rganilgan lotin tili. Yevropada o'rta asrlarning oxirroqlarida – XI-XII asrlarda falsafiy-lisoniy bahs-munozaralarning avj olishi. Realizm va nominalizm ta'limotlari. Uyg'onish davri tilshunosligi. XVII-XVIII asrlarda tilshunoslikdagi o'zgarishlar. Umumiy ratsional grammatika ("Por-Royal grammatikasi")ning yaratilishi.

**5-mavzu. XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. V. Gumboldt ta'limoti. (2 soat)**

XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Til o'zgarmas hodisa deb hisoblangan qarashlarning o'zgarishi. Tilshunoslikka alohida fan

CamScanner yordamida skanerlangan

sifatida qarash g'oyasi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanish davrlari. F. Bopp, R. Rask, A.X. Vostokov, Ya. Grimm ta'limotlari. Qiyosiy-tarixiy metodning ochilishi. Qiyosiy-tarixiy metod yaratilishidan to yosh grammatiklar maktabigacha bo'lgan davr (XIX asrning 1-choragi). Yosh grammatiklar maktabi davri (1870-1890). Yosh grammatiklardan F. De Sossyurgacha bo'lgan davr. Sossyur ta'limotidan bugungi kungacha bo'lgan davr. Tillar o'rtasida o'xshashlik mavjudligi g'oyasining maydonga kelishi. Vilgelm fon Gumboldtning tarixiy-falsafiy qarashlari. Tilshunoslikda naturalizm yo'nalishi. Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816-yilda) fanlar olamiga kirib kelishi. Naturalistik falsafasining mohiyati. Avgust Shleyxer ta'limoti. Tilshunoslikda psixologik yo'nalish: Geyman Shteyntal va Aleksand Afanasyevich Potebnya ta'limoti. Til – tabiiy organizm emas, balki u ijtimoiy hodisa. Tildagi hodisalarning asosida ijtimoiy hodisalar, ijtimoiy taraqqiyot – jamiyat taraqqiyoti emas, balki individual faoliyat, individual taraqqiyot, inson psixikasi,uning fikriy faoliyati yotadi. "Yosh grammatikachilar" qarashlari. Rus tilshunoslik maktablari.

**6-mavzu. Tilshunoslikda strukturalizm. (2 soat)**

Tilshunoslikda strukturalizm yo'nalishi. Praga, Amerika, Kopengagen strukturalizm maktablari.Til belgi – semiotik tizim. Praga funksional lingvistika maktabi. Amerika deskriptiv lingvistika maktabi. Kopengagen glossematika lingvistika maktabi.

**7-mavzu. XX asr tilshunosligi.Ferdinand de Sossyurning lingvistik nazariyasi. (2 soat)**

**9-mavzu. Tillarning o'zaro munosabatlari va rivojlanish qonuniyatlari. ( 2 soat)**

Til kishilar o`rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo`lib,jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umum insoniymanfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo`lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog`liq. Til insoniyat qadar qadimiydir.tilning paydo bo`lish masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi. Tilning paydo bo`lishi juda murakkabdir.

**10-mavzu. Til sathlari, Fonetika, fonologiya orfoepiya va nutq tovushi tasnifi. ( 2 soat)**

Til – tabiiy organizm emas, balki u ijtimoiy hodisa. Tildagi hodisalarning asosida ijtimoiy hodisalar, ijtimoiy taraqqiyot – jamiyat taraqqiyoti emas, balki individual faoliyat, individual taraqqiyot, inson psixikasi,uning fikriy faoliyati yotadi. Til sistemasi elementlari- fonema, morfema, gap tuzish qoliplari, so`z birikmasi, leksema.

**11-mavzu. Til va jamiyat. Til va nutq. ( 2 soat)**

Tilshunoslik fani bir necha bo'limlarga bo'linadi va ularning har biri tilning sathlari bilan bog'liq ma'lum masalalami o'rganadi.
Til nutq tuzib fikr, his-tuyg'u, istak, g'am, shodlik kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi, kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli bo'iib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa sifatida bir qator vazifalar (funksiyalar)ni bajaradi. O`zbek tilining izohli lug`atida "til" ga shunday ta`rif beriladi. Kishilar

CamScanner yordamida skanerlangan

birikkan holda keladi. Aniqrog'i, nutq ketma-ket kelgan tovushlarning yig'indisi yoki ma'lum tartibda birikuvidan iborat bo'lib, u talaffuz jarayonida oldinma-keyin kelgan fonetik biriiklarga bo'linadi. Nutqning ana shunday katta va kichik biriiklarga bo'linishi uning fonetik boMinishi deb ataladi.

**14- mavzu: Tillarning geneologik tasnifi . til oilalari. ( 2 soat)**

Tillaming kelib chiqishi va qarindoshligiga ko'ra oilalarga va guruhlarga ajratilishi geneologik tasnifdir. Tillar geneologik tasnif bo'yicha til oilalariga bo'linadi. Kelib chiqish asosining umu- iniyligi, fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'zaro o'xshashligi, yaqinligi bilan izohlanadigan tillar guruhi tillar oilasi deyiladi. Tillaming geneologik tasnifini yuzaga kelishi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tillaming genealogik tasnifi termini o'mida ayrim manbalarda tillarning shajaraviy tasnifi temiinini qo'llash kuzatiladi . Xalqaro kengashlarda, simpoziumlarda isblatiluvchi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan rasmiy tan olingan, xalqlararo faol qo'llanuvch tillar xalqaro tillar hisoblanadi. Bunga *ingliz, ispan, xitoy,fransuz, rus, arab tillari* kiradi.

**15-mavzu. Asosiy grammatik kategoriyalar. ( 2 soat)**

Grammatika (*grek grammatika – harf o'qish va yozish san'ati)* tilshunoslikning so'z shakllarini, so'z birikmasi va uning turlarini, gap va uning turlarini, ya'ni tilning grammatik qurilishini o'rga- nuvchi bo'limi. Grammatika morfologiya va sintaksis kabi boMimlarni o'z ichiga oladi. Morfologiya *(gr. morphe* -shakl *-logos* ta`limot) so'z shakllari haqidagi grammatik ta'limotdir. Morfologiya so'zlaming grammatik shakllari va so'z turkumlarini o'rganadi. So'z leksik ma'nodan tashqari grammatik ma'no ham anglatadi. So'zning grammatik ma'nosi ham morfologiya sohasida o'rganiladi. So'zning grammatik ma'nosi haqida gap borar ekan, *grammatik ma 'no, grammatik shakl, grammatik vosita* terminlarining mohiya- tini tushunib olish lozim.

**III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mashg'ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Tilshunoslik fanining o'rganish obyekti. Tilning paydo bo'lishi. (2 soat)
2. Yozuv va uning rivojlanish bosqichlari. (2 soat)
3. Tilshunoslik fani tarixi. Qadimgi hind, xitoy, grek, rim tilshunosligi.(2 soat)
4. O'rta asrlarda Yevropa va arab tilshunosligi. O'rta Osiyoda tilshunoslikning rivojlanishi. Uyg'onish davri tilshunosligi. Umumiy ratsional grammatikaning yaratilishi. (2 soat)
5. XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. V. Gumboldtta'limoti. (2 soat)
6. Tilshunoslikda strukturalizm. (2 soat)
7. XX asr tilshunosligi. Ferdinand de Sossyurning lingvistik nazariyasi. (2 soat)
8. Leksikologiya, so`zlarning ma`no va shakl munosabatiga ko`ra turlari.( 2soat)
9. Tillarning o'zaro munosabatlari va rivojlanish qonuniyatlari.( 2soat)
10. Til sathlari. Fonetika ,fonologiya, orfoepiya va nutq tovushi tasnifi. ( 2soat)
11. Til va nutq. Til va tafakkur. . tilning ichki tuzilishi va vazifasi.( 2soat)
12. Sotsiolingvistikaning bugungi kun tilshunosligidagi o'rni va ahamiyati. Diglossia va interferensiya hodisalari (2 soat)
13. Tillarda so`z turkumlari. (2 soat)
14. Tillarning geneologik tasnifi. Til oilalari. (2 soat)
15. Asosiy grammatik kategoriyalar. (2 soat)

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilshunoslik fan sifatida, uning tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.
2. Tilning ijtimoiy vazifalari. R.O. Yakobson tomonidan ilgari surilgan til funksiyalari.
3. Til va madaniyat. Lingvomadaniyatshunoslikning o'rni va ahamiyati.
4. Tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy nazariyalar.
5. Turli tillardagi fonetik hodisalar va ularning o`xshash va farqlixususiyatlari.
6. Grammatika va uning predmeti. Grammatik kategoriya, grammatik ma'no va grammatik shakl.
7. Turli tizimli tillarda so'z yasash usullarining umumiy va farqli jihatlari.
8. Turli tillarda so'z turkumlarini tasniflash tamoyillari.
9. So'zlarning sintetik va analitik shakllari.
10. Leksikologiya va semasiologiya. So'z tilning markaziy birligi sifatida.
11. Tilning lug'at tarkibi. Leksikografiya. Lug'at turlari.
12. Frazeologiya. Frazeologik ekvivalentlik hodisasi.

CamScanner yordamida skanerlangan

|  |  |
|---|---|
|  | 13. Lug'aviy birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlar: giponimiya, graduonimiya, partonimiya.<br>14. Yozuvning maxsus turlari va orfografiya prinsiplari.<br>15. Tillarning genealogik tasnifi.<br>16. O'rta Osiyoda tilshunoslikning rivojlanishi.<br>17. Rossiya tilshunoslik maktablari.<br>18. O'zbek tilshunosligi va uning rivojlanish yo'llari.<br>19. Strukturalizm va uning yo'nalishlari.<br>20. Lingvopragmatika va paralingvistika.<br>21. Psixolingvistika. Bolalar tilining ilk rivojlanish davri.<br>22. Kompyuter lingvistikasi. Tillarni intensiv o'rganish dasturlari.<br>23. Til ta'limiga zamonaviy yondashuvlar: kommunikativ, integrar va kompetensiyaviy yondashuvlar.<br>24. Kommunikativ tilshunoslikning zamonaviy turlari.<br>25. Tillarning o'zaro munosabatlari va rivojlanish qonuniyatlari.<br>26. Zamonaviy tilshunoslikning tarmoqlari va yo'nalishlari.<br>27. Tilshunoslikda strukturalizm.<br>28. Tilshunoslikning tadqiq metodlari.<br>29. Til sistemasi. Paradigmatika va sintagmatika.<br>30. Sotsiolingvistikaning bugungi kun tilshunosligidagi o'rni va ahamiyati. Diglossia va interferensiya hodisalari.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tavsiya etiladigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'qigan adabiyotlarini til xususiyatlarini yozma bayon qilish, portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |

| 3. | **V. Ta'lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalar** |
|---|---|
|  | **Talaba:**<br>– til – ijtimoiy hodisa;<br>– til sathlari;<br>– tilshunoslik va boshqa fanlar o'rtasidagi aloqalar;<br>– tillarning tipologik va genealogik tasnifi;<br>– zamonaviy dunyo tillari to'g'risida yetarli darajada **nazariy bilimlarga ega bo'lishi; (bilim)**<br>– til tarixi va nazariyasi to'g'risida keng bilimni egallay olish;<br>– O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;<br>– o'rganilayotgan chet tilidan ona tilining xususiyatlarini ajrata olish;<br>– turli tillarni oila va guruhlarga tasniflay olish;<br>– zamonaviy tilshunoslik masalalarini tushuna olish **amaliy ko'nikmalarni egallashi; (ko'nikma)**<br>– chet til o'rganish amaliyotida nazariy bilimlarni qo'llash;<br>– tilshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlarga kasbiy nuqtai nazardan yondashish;<br>– dunyo tilshunosligida ro'y berayotgan jarayonlarni o'zaro bog'liqlik nuqtai-nazaridan tahlil qilish;<br>– tilshunoslikning umumiy va xususiy belgilari haqidagi tushunchalarni amaliyotda **qo'llash malakalarini egallashi (malaka)** lozim. |

CamScanner yordamida skanerlangan

| | |
|---|---|
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlar:**<br>• aqliy hujum;<br>• interfaol suhbat;<br>• keys-stadilar;<br>• besh minutlik esse;<br>• assesment;<br>• bahs-munozara;<br>• muammoli vaziyat;<br>• charxpalak;<br>• beshinchisi ortiqcha;<br>• hayoliy xarita;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• rezyume;<br>• BBB;<br>• yo`naltiruvchi matn;<br>• tushunchalar tahlili;<br>• zinama-zina. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy bilimlarni o'rganish va shu asosida fanning o'ziga xos tomonlarini to'la o'zlashtirish, fanning har bir mavzusi bo'yicha berilgan nazariy bilimlar asosida tilshunoslik fanining kelib chiqishi, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning o'rganish obyekti, tillarning tasniflanishi va yangi tadqiqot metodlarini to'g'ri ifodalay olish, fanga taalluqli bo'lgan har qanday mavzuga erkin munosabat bildirgan holda tahlil eta olish, o'rganilayotgan fanning tahlili bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan variantli test topshiriqlarini bajarish, yakuniy nazorat topshiriqlarini topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T., 2008.<br>2. Yo'ldoshev I., Muhammedova S., Sharipova O'., Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. – T., 2007/2013.<br>3. Muhammedova S., Yo'ldoshev I., Madjidova R., Sharipova O'., To'xtamatov X. Tilshunoslik asoslari. – Elektron darslik.<br>4. N. Uluqulov. Tilshunoslik nazariyasi ,Toshkent- 2016 ,<br>5.Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М., 2007.<br>6.Реформатский А. Введение в языкознание. – М., 2006.<br>7.Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. – М., 2007.<br>8.Nurmonov A., Iskandarova Sh. Umumiy tilshunoslik. – T., 2007.<br>9.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T., 2007/2010.<br>10.Шарафутдинова Н.С. Теория и история лингвистической науки. – М.,2007.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.<br>2.Madjidova R., Sultonova Sh. Введение в языкознание. – Т., 2020.<br>3.Zokirov M., Madjidova R., Sultonova Sh. O'zbekcha-ruscha-inglizcha lingvistik atamalar muxtasar lug'ati. – T., 2016.<br>4. Немченко В.Н. Введение в языкознание. – М., 2008.<br>5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 2004.<br>6.Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь. – М.,2006.<br>7.Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 1974.<br>8.Левитский Ю.А. Общее языкознание. – М., 2009.<br>9..Umarxo'jaev M. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2010.<br>10.Брусенская Л.А. Учебный словарь лингвистических терминов. – Ростовн/Д., 2005.<br>**Axborot manbalari**<br>1. http://gov.uz/ - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali<br>2. http://www.ziyonet.uz/- Ta'lim portal<br>3. http://www.edu.uz/ - Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portal<br>4. http://www.ziyonet.uz<br>5. http://ziyouz.uz<br>6. http://www.pedagog.uz<br>7. http://www.edu.uz |
| 7. | Ushbu fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "30" 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>Ibodullayeva Dinora – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Xorijiy tillar kafedrasi o`qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>O'. Xudoynazarova –Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Fakultetlararo chet tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |



CamScanner yordamida skanerlangan